



## O'QUVCHILARNING TADQIQOTCHILIK VA IJODKORLIK QOBILYATINI SHAKLLANTIRISH

Allayorova Sarvinoz Baxtiyorovna<sup>1</sup>

<sup>1</sup> Chirchiq davlat pedagogika instituti  
Pedagogika fakulteti "Pedagogika va  
psixologiya" yo'nalishi magistranti  
(allayorovasarvinoz78@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.5759452>

### MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20- Noyabr 2021  
Ma'qullandi: 25- Noyabr 2021  
Chop etildi: 30 - Noyabr 2021

### KALIT SO'ZLAR

*Xorijiy tajribalar, kasbiy kompetentlik, boshlang'ich ta'lim, pedagogik yondashuv, integratsion ta'lim.*

### ANNOTATSIYA

*Mazkur maqolada boshlang'ich sinflarda muammoli o'qitish texnologiyalarini qo'llash, tadqiqotchilik va ijodkorlik qobiliyatini shakllantirishda rivojlangan davlatlarning dastur talablari asosida tavsiyalar ishlab chiqish xususida so'z boradi.*

**Kirish:** Bugungi kunda dunyo miqyosida axborot kommunikatsiya tizimining yuksak darajada rivoj topib borayotganligi va bu boshqa sohalarda qatorida ta'lim jarayoniga ham kirib kelib, uni yanada sifatli tashkil etishga o'z ta'sirini ko'rsatayotganligi barchamizga ma'lum. XXI asrni olimlarimiz tomonidan axborot texnologiyalari asri deb tan olinganligi pedagogik va axborot texnologiyalari kun sayin barcha sohalarda rivojlanayotgani, jumladan, ta'lim sohasida ham yangi axborot texnologiyalaridan keng foydalanish an'anaviy o'qitish usullaridan ko'ra samarali va yuqori natijalarga olib kelmoqda.

Milliy ta'lim sifatini baholashdagi nazorat materiallarining xalqaro

tadqiqotlarda qo'llaniladigan nazorat materiallari sifati darajasida ishlab chiqilgan o'quv qo'llanmalar o'quvchilarning bilim salohiyati va ijodkorlik qobiliyatlarini yanada foal shakllanishiga muhim omil hisoblanadi. (1)  
**Asosiy qism:** Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat a'zolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda ta'lim-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi chet el tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda keng ko'lamdagi islohotlarni o'z boshidan kechirayotgan bizning



ta'limimiz uchun bu katta ahamiyatga ega.

Yaponiya ta'limining shakllanishi 1867-1868 yillarda boshlangan bo'lib, o'z oldiga ikki vazifani: birinchi – boyish, ikkinchi – g'arb texnologiyasini Yaponiya ishlab chiqarishiga kiritish masalasini qo'yadi va bu ishni amalga oshirish uchun birinchi galda ta'lim tizimini tubdan o'zgartirish kerakligi aytiladi. 1872-yili «Ta'lim haqidagi qonun» qabul qilindi. Bunda Yapon ta'limi g'arb ta'limi bilan uyg'unlashtirildi. 1908-yilda Yaponiyada boshlang'ich ta'lim majburiy 6 yillikka aylantirildi. Mutaxassislarning fikricha, Yapon maktablari elektron hisoblash mashinalari va boshqa o'quv texnika vositalari bilan to'la ta'minlanganligiga qaramay, asosiy e'tibor o'qituvchi faoliyati va darslikka qaratilgan bo'lishi kerak. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi jonli muloqot o'rnini har qancha, takomillashgan mashina ham bosa olmaydi. (2)

O'quvchilarda tasavvur va tahlil qilish qobiliyatini shakllantirish maqsadida 70-yillarda AQSHda kelajak maktabi umummilliy loyihasini amalga oshirishga kirishildi. Bu eksperiment mazmuni o'qituvchi buyrug'i bilan ish tutishni emas, aksincha o'quvchilarga mustaqil ishlash imkoniyatini berishdan iborat ta'limni ilgari surdi. Ta'lim tarkibi sinfda ishlash, mustaqil mashg'ulot, o'qituvchi konsultatsiyasini o'z ichiga oladi. Germaniya maktablarida sinfda o'quvchilar soni kam. Bunday o'quvchilarning har biriga individual topshiriqlar beriladi. Topshiriqlarni o'quvchi mustaqil bajaradi, lozim bo'lganda u o'qituvchidan konsultatsiya oladi. (3)

Chet el ta'limidagi bunday ibratli jihatlarni milliy ta'lim tizimida qo'llash,

mustaqil Resublikamizda o'quv-tarbiya ishlarini isloh qilish jarayonini tezlashtiradi. Bugungi kunda xalqaro ta'lim standartlarida PISA (o'quvchilarni ta'limiy yutuqlarini baholash), PIRLS (matni o'qish va tushunish darajasini aniqlash), TIMSS (maktabda matematika va aniq fanlar sifatini tadqiq qilish) kabi bir qator xalqaro dasturlar mavjud bo'lib, ular rivojlangan davlatlardagi ta'lim sifatini yanada oshirishdagi mezon sifatida keng qo'llanilmoqda. Bu xalqaro tadqiqotlar birinchi navbatda nostandart ta'limni joriy qilishga, o'quvchining hozirda olgan bilimni

70 yildan keyin ham hayoti davomida qo'llay olishiga hamda bozor iqtisodiyoti davrida raqobatbardosh kadr bo'lish g'oyasini ilgari surmoqda.

Shu o'rinda qobilyat tushunchasiga qaraylik. Qobilyat-bu insonning individual salohiyati, imkoniyatlari. Qobilyat bilimdan keskin farqlanadi, bilim mutolaa natijasi hisoblanadi, qobilyat shaxsning psixologik va fiziologik tuzilishining xususiyati sanaladi. Ko'nikma, malaka bular bir biridan farq qiladi. Aksariyat ilmiy manbalarda mohirlik bilan qobilyat aynanlashtiriladi. Qobilyat inson tomonidan ko'nikma va malakalarning egallanishi jarayonida takomillashib boradi. Har qanday qobilyat turi shaxsga tegishli murakkab psixologik tushunchadan tashkil topgan bo'lib, u faoliyatning talablariga mutanosib xususiyatlar tizimini o'z ichiga oladi. Shuning uchun qobilyat deganda birorta xususiyatning o'zini emas, balki shaxs faoliyatining talablariga javob bera oladigan va shu faoliyatda yuqori ko'rsatkichlarga erishishni ta'minlashga imkoniyat beradigan xususiyatlar sintezini tushunmoq lozim.



Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'nalishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish bugungi kun talabi. Bu ishlarni amalga oshirish bilan bir qatorda biz o'quvchi qobiliyatlarini ochishga qaratilgan ta'lim tizimini yanada rivojlantirib borishimiz kerak.

Ta'limning asosiy vazifasi o'quvchida jamiyatda muvaffaqiyatli hayot kechirishi uchun bugun va kelajakda kerak bo'ladigan ko'nikmalarni shakllantirishdir. Umuman olganda, xalqaro standartlarda tadqiqotchilik qobiliyatiga ega o'quvchilar kelajakda hozir hatto mavjud bo'lmagan sohalarda ishlashi, yangi muammolarni yangi texnologiyalar orqali hal etishi kutilmoqda. O'quvchida kreativ fikrlash ko'nikmasini shakllantirish ularga tobora murakkablashayotgan mahalliy va global muammolarni noodatij yondashuv orqali hal etish imkonini beradi. (4)

Har besh yilda o'tkaziladigan PIRLS dasturi 4-sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini xalqaro darajada baholaydi. Mazkur dastur IEA tashkilotining 4-sinf o'quvchilarini matematika va tabiiy fanlardan savodxonligini baholaydigan TIMSS dasturini to'ldirishga yo'naltirilgan bo'lib, Boston kollejidagi TIMSS va PIRLS xalqaro o'quv markazi IEA tashkilotining Gamburg va Amsterdam shaharlaridagi idoralari bilan yaqindan hamkorlikda boshqariladi. Ushbu baholash tizimi

dunyoning 70 dan ortiq mamlakatlarida qo'llaniladi. (5)

**Xulosa va takliflar:** 7-8 yoshli o'quvchilarda ijodkorlik, tadqiqotchilik va kuzatuvchanlik kabi qobiliyatlarni o'rganishda olimlar shunday tajriba o'tkazishganki, bu orqali ular og'riqsiz davolovchi fizioterapiya, insonlarga xizmat ko'rsatuvchi robot odam va elektron doskalarni ishlab chiqish uchun kerakli g'oyalarni olgan.

EGRA va EGMA tadqiqotlari boshlang'ich sinflarni o'qitishda tizimli bo'shliqlarni tashxislash va ularni hal etishning eng maqbul yechimlarini aniqlovchi, o'qish hamda savodxonlik ko'nikmalarini sinovchi ilmiy asoslangan modellar hisoblanadi. Sinovning asosiy maqsadi har bir til uchun vositalarni sinab ko'rish, ma'lumotlarni yig'ish, shuningdek ushbu tillarda imtihon topshirish amaliyotini sinab ko'rishdan iboratdir. PIRLS yosh o'quvchilarning sinfda va sinfdan tashqari o'qishining ikkita keng qamrovli maqsadiga qaratilgan. Bular badiiy tajriba orttirish hamda ma'lumot olish va ulardan foydalanish uchun o'qishdir. Bundan tashqari, PIRLS o'qish maqsadlarining har birida to'rtta keng tushunish jarayonini birlashtiradi. Bular: diqqatni jamlash va aniq ko'rsatilgan ma'lumotlarni topish, to'g'ridan to'g'ri xulosalar chiqarish, g'oyalar va axborotni talqin qilish va uyg'unlashtirish, matn elementlarini baholash va tanqid qilish. (6) Ushbu dasturlarga tayyorlanish uchun berilgan mashq daftarlaridagi hikoyalarni nafaqat 4-sinf o'quvchilari bilan balki, boshlang'ich sinf o'quvchilarida 1-sinfdan boshlab ularning murakkablik darajasiga qarab har bir sinfda qo'llash orqali ulardagi qobiliyatlarni rivojlantirib borishimiz mumkin.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 2017 yil 7-fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-sonli farmoni
2. ziyonet.uz
3. S.B. Qorayev, S. B. Allayorova “Xalqaro dastur talabalari asosida innovatsion ta‘lim muhitini yaratish” , “Fan, ta‘lim va amaliyot integratsiyasi” jurnali issn: 2181-1776 “Bilig – ilmiy faoliyat” nashri <http://bilig.academiascience.or>
4. O‘zbekiston Respublikasi xalq ta‘limi vazirligi “Pisa tadqiqotida kreativ fikrlashni baholash doirasi” o‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2020
5. S.B. Qorayev, S. B. Allayorova “Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini pirls xalqaro baholash dasturi tizimiga tayyorlash jarayonini takomillashtirish masalalari” Academic research in educational sciences volume 2 | issue 2 | 2021 issn: 2181-1385 scientific journal impact factor (sjif) 2021: 5.723 doi: 10.24411/2181-1385-2021-00217
6. S.B. Qorayev, S. B. Allayorova Ўқиш саводхонлигига қўйилаётган замонавий талаблар (PIRLS халқаро баҳолаш тадқиқотлари мисолида) “Pedagogik ta‘lim klasteri: muammo va yechimlar” konferensiyasi.